

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.20/30.12.2019.S.23.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

HOJIYEV ZAVQIDDIN FARXODOVICH

**YANGI O‘ZBEKISTONDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINI
INSTITUTIONAL TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**SOTSIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Hojiyev Zavqiddin Farxodovich

Yangi O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini institutsional takomillashtirish tendensiyalari..... 3

Хожиев Завкиддин Фарходович

Тенденции институционального совершенствования государственной гражданской службы в Новом Узбекистане.....35

Khojiev Zavkiddin Farkhodovich

Trends in institutional improvement of the state civil service in New Uzbekistan71

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....76

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.20/30.12.2019.S.23.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

HOJIYEV ZAVQIDDIN FARXODOVICH

**YANGI O‘ZBEKISTONDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINI
INSTITUTIONAL TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**SOTSIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Sotsiologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/S48 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dsba.uz) va «www.Ziynet» axborot ta'lim portalida joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Matibayev Tashpo'lat Baltabaevich
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sagdullayev Shamansur Shaxsaidovich
texnika fanlari doktori, akademik

Karimov Bobir Sharopovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

«Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi huzuridagi DSc.20/30.12.2019.S.23.02. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 6-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. Tel.: (71) 232-60-34; (71) 232-61-04; e-mail: info@dsba.uz). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi ma'muriy binosi, 11-qavat, 1104-xona).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (359-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi ma'muriy binosi, 2-qavat, 202-xona).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «18» iyul kuni tarqatildi.
(2025-yil «18» iyuldagi 18/7-raqamli reyestr bayonnomasi).



M.B. Bekmurodov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, sots.f.d., professor

Sh.M. Sodiqova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, sots.f.d., professor

A.M. Muxtarov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi
o'rinbosari, f.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida davlat fuqarolik xizmatini yuqori malakali va kompetentli kadrlar bilan ta'minlash davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda hal qiluvchi omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. «Davlat fuqarolik xizmati» tushunchasi mazmun-mohiyatiga ko'ra murakkab ijtimoiy paradigma bo'lib, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, jamoatchilik manfaatlarini ifodalovchi hamda fuqarolarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan professional faoliyat turidir. Rivojlangan xorijiy davlatlarda xususan, Singapurda davlat xizmati jamiyatdagi konseptual va huquqiy islohotlarga asoslangan holda, ochiqlik, samaradorlik va professionallik tamoyillari asosida faoliyat olib boradi. Mamlakat Bosh vaziri Li Kuan Yu tomonidan ilgari surilgan meritokratiya – layoqat va salohiyatga asoslangan boshqaruv tizimi orqali davlat xizmati tubdan isloh qilinib, sohaga samarali boshqaruvi mexanizmlari joriy etilgan. Natijada mamlakatda yuqori malakali, mas'uliyatli va halol xizmatchilardan iborat davlat xizmatchilari korpusini shakllantirishga erishilgan.

Dunyoda olib borilayotgan sotsiologik tadqiqotlarda davlat fuqarolik xizmatchisining jamiyatdagi ijtimoiy vazifasi, davlat va fuqarolar o'rtasida samarali muloqotni tashkil qilishdagi ishtiroki hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro aloqalari tizimli ravishda tadqiq qilinmoqda. Bunday tadqiqotlarda davlat fuqarolik xizmatini tashkil qilishning ijtimoiy-institutsional asoslari – nomzodlarni tanlash va saralab olish, xodimlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, barqaror kasbiy faoliyatni ta'minlash, faoliyat samaradorligini obyektiv baholash, yuqori malakali kadrlar zaxirasini shakllantirish, ijtimoiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, sohani raqamlashtirish bilan bog'liq masalalar sotsiologik nuqtayi nazardan dolzarb ilmiy muammolar sifatida qaralmoqda. Zamonaviy jamiyatda kechayotgan modernizatsiya jarayonlari ko'rsatib o'tilgan masalalarga daxldor zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini davlat fuqarolik xizmatiga joriy etishni taqozo qilmoqda. Bu esa davlat fuqarolik xizmatini institutsional rivojlantirish tendensiyalarini sotsiologik va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda ilmiy asosda o'rganish zaruratini vujudga keltiradi.

Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu – davlat fuqarolik xizmatini yagona tizim sifatida institutsional takomillashtirish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida davlat fuqarolik xizmatini zamonaviy talablar va xalqaro standartlar asosida tashkil etish, uning samaradorligini va shaffofligini oshirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan «Bugun hayotning o'zi bizdan davlat xizmati tizimini yanada samarali tashkil etish, ushbu yo'nalishda ham professional, tezkor tuzilmalarni shakllantirishni talab qilmoqda»¹, degan konseptual g'oya nechog'li to'g'ri va haqqoniy ekanligini hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Davlat fuqarolik xizmatini yaxlit tizim sifatida tadqiq qilish, uning samaradorligini oshirish, davlat fuqarolik xizmatchilarini rivojlantirish, ularning xizmat majburiyatlari va kompetensiyalari doirasidagi vazifalarni amalga oshirishning samarali shakl va usullarini

¹Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2021. – B. 92.

amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mazkur sohada zarur institutsional imkoniyatlarni shakllantirish va mustahkamlash, mazkur jarayonni sotsiologik nuqtayi nazardan ilmiy tadqiq qilish, uning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi «Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida»gi O‘RQ–788-son va 2024-yil 5-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasining «Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida»gi O‘RQ–931-son qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–5843-son, 2022-yil 20-apreldagi «Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–113-son, 2022-yil 21-dekabrdagi «Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–269-son, 2023-yil 25-yanvardagi «Respublika ijro etuvchi organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF–14-son, 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–158-son, 2024-yil 2-fevraldagi «Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–28-son, 2024-yil 13-martdagi «Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–49-son, 2025-yil 19-iyundagi «Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–95-son farmonlari, 2019-yil 3-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ–4472-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi «Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 595-son, 2023-yil 22-sentabrdagi «Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 492-son, 2024-yil 31-iyuldagi «Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik birlashmalari rahbarlari va ularning o‘rinbosarlari faoliyatini eng muhim ko‘rsatkichlari asosida baholashni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 463-son, 2025-yil 9-apreldagi «Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining inson resurslarini boshqarish bo‘yicha faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 212-son qarorlari hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanish va ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» deb nomlanuvchi birinchi ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Hozirgi kunda davlat xizmatini institutsional rivojlantirish tendensiyalarini o'rganishga ixtisoslashgan bir qator ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Xususan, Civil Service College (Singapur), National Academy of Governance (Xitoy), National Institute of Public Administration (Yaponiya), National Human Resources Development Institute (Janubiy Koreya), Australian Public Service Academy (Avstraliya), The School of Public Affairs (AQSh), Institute of Local Government Studies va Civil Service College (Buyuk Britaniya), l'Institut national du service public (Fransiya), Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi Rossiya xalq xo'jaligi va davlat xizmati akademiyasi (Rossiya Federatsiyasi), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi va O'zbekiston Milliy universiteti (O'zbekiston)² tomonidan tadqiqot va izlanishlar olib borilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda davlat fuqarolik xizmatini institutsional rivojlantirish sohasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida ushbu yo'nalishda muayyan ilmiy asoslangan xulosalarga kelingan. Xususan, zamonaviy talablarga javob beradigan davlat xizmatini tashkil qilish, innovatsion va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish, inson resurslarini strategik boshqarish, menejment, liderlik va tashkiliy rivojlanishni ta'minlash, davlat xizmatchilarida halollikni rivojlantirish, jamiyatga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarining sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan (Civil Service College, Singapur). Davlat xizmatini modernizatsiyalash, milliy boshqaruv sohasini rivojlantirish, oliy va o'rta bo'g'in rahbarlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, xizmatchilar salohiyatini oshirishda «bir maktab to'rt institut» tamoyili asosida ish olib borish, kompetensiyalarni uzluksiz oshirish va karyera masalalari ochib berilgan (National Academy of Governance, XXR). Yosh liderlarni tayyorlash, fuqarolarga xizmat qilish mas'uliyatini oshirish, sifat va qobiliyatlarini, o'zaro tushunish va chuqur ishonchni rivojlantirish hamda shu orqali davlat xizmatchilarida maqsadga erishishda birdamlik tuyg'usini oshirish masalalariga e'tibor qaratilgan (National Institute of Public Administration, Yaponiya). Moslashuvchan davlat kadrlar siyosatini ishlab chiqish, yuqori lavozimlarda ishlash uchun iqtidorli talabgorlarni saralab olish, davlat xizmatida «karyera» modelini takomillashtirish, «xalqqa yo'nalganlik» va «meritokratiya» tamoyillarini joriy qilish, global va innovatsion liderlikni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlar ishlab chiqilgan (National Human Resources Development Institute, Koreya Respublikasi). Jamoada yuqori samardorlikka erishish, boshqaruv jarayonlariga to'sqinlik qiluvchi holatlarni tahlil qilish, loyihalash, ishlab chiqish va turli ssenariylar bo'yicha brifinglar o'tkazish va qaror qabul qilish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish, tashqi va ichki mehnat munosabatlarini samarali yo'lga qo'yish masalalari ochib berilgan (Australian Public Service Academy, Avstraliya). Federal davlat xizmatchilarini qo'llab-quvvatlash, fuqarolik xizmatiga qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish, xodimlarning ijtimoiy himoyasi va moddiy kafolatlarini kuchaytirish, davlat va xususiy sektor lavozimlarida faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat-xususiy sherikchilik sohalarini rivojlantirish, davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida adolat tamoyili asosida

²<https://www.csc.gov.sg/>; <http://www.ccps.gov.cn/>; <https://www.jinji.go.jp/eng/>; <https://www.nhi.go.kr/eng/>; <https://www.apsacademy.gov.au/aps-craft/>; <https://www.birmingham.ac.uk/schools/government/departments/local-government-studies/>; <https://www.civilservicecollege.org.uk/>; <https://www.american.edu/spa/> <https://insp.gouv.fr/>; <https://ranepa.ru/>; <https://dsba.uz/uz/>; <https://nuu.uz>

xizmat ko'rsatish orqali ijtimoiy va siyosiy muammolarni hal qilish masalalari atroflicha o'rganilgan (The School of Public Affairs, AQSh). Har bir davlat xizmatchini tayyorlashga individual yondashuvni qo'llash, davlat xizmatini markazlashgan yagona boshqaruv tizimi asosida tashkil etish, biznes vakillarini davlat xizmatiga jalb qilish, mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilish, xizmat faoliyatini samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash, submilliy, shahar va mahalliy boshqaruv sohaslarini takomillashtirish hamda siyosiy-ma'muriy sohadagi munosabatlar tadqiq qilingan (Institute of Local Government Studies va Civil Service College, Buyuk Britaniya). Krizis vaziyatlarda boshqaruv, menejment, muzokaralar olib borish, samarali kommunikatsiyani ta'minlash, davlat xizmati uchun milliy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy yechimlar ishlab chiqilgan (l'Institut national du service public, Fransiya). Ijtimoiy sohada boshqaruv, siti-menejment, davlat xizmatchilari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, milliy va hududiy hokimiyat boshqaruv faoliyatini tashkil qilish va takomillashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan (Российская академия народного хозяйства и государственной службы при Президенте Российской Федерации, RF). Mahalliy hokimiyat vakillik organlari boshqaruv tizimidagi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ma'muriy boshqaruv tizimini tashkil etish va takomillashtirish masalalari asosida davlat boshqaruvini rivojlantirish, shuningdek umidli yoshlarni xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlar ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi, O'zbekiston). O'zbekistonda davlat xizmati sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatini sotsiologik baholash, davlat xizmatchisining etikasi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston).

Dissertatsiyada yuqorida keltirilgan manbalar analitik va sintetik tahlil etilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Davlat fuqarolik xizmatini modernizatsiya qilish, uning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish masalalari jahon sotsiologiyasida alohida ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida shakllangan bo'lib, bu sohada Sharq va G'arb mamlakatlari olimlari tomonidan davlat boshqaruvi tizimining institutsional asoslari, kadrlar siyosatining ijtimoiy mexanizmlari va fuqarolik xizmatining jamiyat barqarorligiga ta'siri kabi masalalar kompleks o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda ishlab chiqilgan xalqaro va mahalliy tahliliy modellar, nazariy konsepsiyalar hamda empirik tadqiqotlar davlat fuqarolik xizmatini sotsiologik nuqtayi nazardan o'rganish imkoniyatini kengaytirgan. Shu nuqtayi nazardan, davlat fuqarolik xizmatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari va ushbu sohadagi muammolarning o'rganilganlik darajasini quyidagicha tahlil qilamiz.

Qadimgi yunon mutafakkiri Suqrot davlat boshqaruvida shaxsiy fazilatlarga alohida e'tibor qaratib, bunday toifadagi amaldorlar yoki davlat xizmatchilari axloqiy jihatdan yetuk, adolatli, mas'uliyatli bo'lishi kerakligini, bilimi va donoligi bilan xalqni to'g'ri yo'lga boshlashi kerakligini ta'kidlaydi. U boshqaruvni san'at sifatida baholab, uning asosiy maqsadi xalq yo'lidagi fidokorlik bilan xizmat qilish kerakligini ko'rsatib o'tadi³. Platon «ideal davlatda donolik, jasorat, me'yor va adolat kabi to'rt tamoyil ustuvor bo'lishi kerakligini, odillikni esa davlat boshqaruviga oid fazilat sifatida talqin qiladi. Davlat

³Новая философская энциклопедия // <https://iphras.ru/elib/0829.html>

xizmatidagi shaxslar birinchi navbatda ko'rsatib o'tilgan sifatlarga ega bo'lishlari kerak»ligini ta'kidlaydi⁴. Aristotel esa ratsional va mukammal siyosiy shaklni tanlashda demokratik boshqaruvga alohida e'tibor qaratadi. Davlatning asosiy maqsadi – fuqarolarga farovon hayotni ta'minlashi kerak, deb hisoblaydi. Olim davlat qurilishining olti (monarxiya, aristokratiya, politiya, tiraniya, oligarxiya, demokratiya) turlarini ajratib ko'rsatadi⁵. Mazkur fikrlar davlat xizmatchilari faoliyati keng ijtimoiy munosabatlar tizimida shakllanuvchi axloqiy qadriyatlar, fazilatlar va jamiyatning normalari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilganligini ko'rsatib turibdi.

Davlat va jamiyat boshqaruvi masalalari ijtimoiy munosabatlarning asosiy yo'nalishlaridan bir sifatida qadimgi mutafakkirlarning e'tiborida bo'lgan. Bu boradagi yondashuvlarda ideal davlat va fozil jamiyat modelini shakllantirishda asosiy ustuvorlik – jamiyat a'zolarining ma'naviy-axloqiy kamolotiga, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikka, adolat boshqaruvga, rahbar shaxsining ma'rifatliligiga, jamiyatda ijtimoiy tenglik va barqarorlikni ta'minlashga e'tibor qaratilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida fozil jamiyat modelini shakllantirib, fozil shaharga o'n ikkita sifatni o'zida mujassamlashtirgan ma'rifatli va axloqli hukmdor rahbar bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Abu Ali ibn Sino «fozil» va «johil» shaharlarda hokimiyatni amalga oshirish, ideal davlat qurish jamiyat a'zolarining ma'naviy-axloqiy rivojlanganligiga bog'liqligi bilan bog'laydi. Abu Rayhon Beruniy davlatni adolat asosida tashkil etish insonlar o'rtasidagi tabiiy hamkorlikning natijasi sifatida qaraydi, bunda rahbar jamiyatda tenglik va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashi kerakligini ta'kidlaydi. Yusuf Xos Hojib esa inson va jamiyat hayotida adolat, aql-idrok, axloqiy sifatlari, oqilona boshqaruv orqali tartib, barqarorlikka va saodatga erishishlari mumkin deb hisoblaydi. Nizomulmuluk hukmdor davlatni boshqarishda maslahatchilar bilan kengashib qaror qabul qilishini, davlatning barqarorligini odil va zakovatli rahbar shaxsi bilan bog'laydi⁶.

Davlat boshqaruvida rahbar va mansabdor shaxslar faoliyatini aniq tartib, mas'uliyatli kengashuv va oqilona qaror qabul qilishga asoslangan institutsional tizim orqali tashkil etish masalalari «Temur tuzuklari»da ko'rsatib o'tilgan. Uning davlatchiligi markazida xalq va davlat manfaatlari ustuvor ahamiyat kasb etgan bo'lib, ushbu masalaga bag'ishlangan tuzuklarida davlatni idora qilishga oid tamoyillar, davlat kengashlarining davlatchilik tarixidagi o'rni masalalari o'rin egallagan. Asarda vazir, amirlar, beklar, muftiy, muhtasib, qozikalon, sadr va boshqa mansabdor shaxslarning xizmat qilish tuzigi, faoliyat tartibi va qoidalari batafsil yoritilgan⁷. Amir Temur adolatni davlat boshqaruvining asosiy tamoyili sifatida e'tirof etib, mansabdor shaxslarning fazilatli va vijdonli bo'lishi zarurligini ta'kidlagan. Shuningdek, u mamlakatni boshqarish samaradorligi – munosib shaxslarni to'g'ri tanlash va ularni tegishli lavozimlarga joylashtirishga bog'liq, deb bilgan. Bunda vazir maqomiga ega bo'lishi lozim bo'lgan aql-farosatli, xalq ahvolidan xabardor, sabrlik va chidamlilik kabi fazilatlariga ega bo'lishiga doir fikrlar bildirilgan.

Ta'kidlash joizki, ulug' Sohibqiron barpo etgan davlat xizmati vazifalari muayyan darajada funksional negizda tartiblashgan bo'lsa-da, tarkibiy-tuzilmaviy masalalarni aniq

⁴Платон. Государство. //www.civisbook.ru/files/File/Platon.Gosudarstvo.pdf; RexMartin. The ideal state in Plato's «Republic». History of Political Thought Vol. 2, No. 1 (Spring 1981), pp. 1-30 // <https://www.jstor.org/stable/26211766>

⁵Aristotle. Politics // <https://pressbooks.online.ucf.edu/ancientpoliticalphilosophy/chapter/aristotle-politics/>

⁶Olimlarning asarlari va qarashlari dissertatsiya matnida keltirilgan.

⁷Temur tuzuklari. – Toshkent: «Hilol media». – 2019. 192 b.

boshqaruv mexanizmiga transformatsiyalash borasidagi boshqaruv faoliyati tugal va tizimli bosqichga ko'chmagan edi.

Mirzo Ulug'bekning davlat boshqaruviga oid ta'limoti mazmun-mohiyatiga ko'ra, ilm-ma'rifatga asoslangan, adolatni markazi o'ringa qo'ygan, inson manfaatlari ustuvor bo'lgan ijtimoiy adolat modeli hisoblanadi. U o'zining qarashlarida ilm va ma'rifatni davlat boshqaruvining poydevori deb biladi. Ulug'bek ilmsiz jamiyat taraqqiy etmasligini ta'kidlab, davlatni boshqaruvining asosi adolatga tayanishi kerakligini ta'kidlaydi. U qarorlar qabul qilishda vazirlar, ulamolar va donolarning maslahatiga tayangan, xalqning dardu tashvishidan xabardor bo'lishi hamda ularga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishi kerakligiga urg'u bergan.

Alisher Navoiy o'zining asarlarida davlat boshqaruvi, podshoh shaxsiyatiga xos fazilatlar, odil hukm yuritish, amaldorlar odobi va xalq bilan munosabatlari masalalariga e'tibor qaratgan. Mutafakkirning fikriga ko'ra, davlatning mustahkamligi va xalqning farovonligi podshohning adolatli bo'lishiga bog'liq. A.Navoiy ideal hukmdomi ilmi, rahmdil, kechirimli, manmanlikdan yiroq, davlatni boshqarishda adolatga tayanadigan va fuqarolarning holidan xabardor bo'lgan shaxs sifatida tasviflaydi. Bunday rahbar aqlli maslahatlarni qabul qilishi, o'zining atrofidagi amaldorlar va maslahatchilarning yuksak axloqiy fazilatlarga ega, halol, podshoni odil qarorlar qabul qilishga undashi lozimligini ta'kidlaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur davlatni idora qilishga oid ta'limotida davlat boshqaruvi, mulozimlar faoliyatini tashkish qilish, odil hukmdor, xalq farovonligi, harbiy intizom, davlat mulozimlarining yuksak axloqiy sifatlari muhim o'rin egallaydi. Uning qarashlarida podshoh xalqning ahvolidan xabardor bo'lishi, hukmdorlik faqat siyosiy kuchgagina emas, balki aql, bilim va maslahatga asoslanishi kerakligini alohida ta'kidlaydi. Shu sababli u qarorlar qabul qilishda bilimli, vijdonli va keng tafakkurga ega shaxslar bilan maslahatlashgan. Bobur davlat xizmatidagi shaxslar uchun mas'uliyat, halollik va xalqqa sadoqatni zarur sifatlar sifatida ko'rsatadi.

Xoja Samandar Termiziy o'zining ta'limotida davlatchilikning asosi sifatida adolatni belgilab, davlat rahbariga xos bo'lgan sifatlarga alohida e'tibor qaratgan. Uning ta'kidlashicha, sulton o'zini xalqdan ustun qo'ymasligi, xalq bilan birga bo'lishi, xalqning ahvolidan xabardor bo'lishi zarur. Davlatni idora qilishda aqlga, ilmga va axloqqa tayanishi, halol va pokiza bo'lishi, qaror qabul qilishda xalq manfaatlarini ustun qo'yishi rahbar shaxsi uchun asosiy talablardan sanaladi. Shuningdek, olim islom axloqiy me'yorlariga amal qilishni davlat xizmatchilari faoliyatining asosiy tamoyili bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi⁸.

Tarixiy davrlar mobaynida mazkur mutafakkirlar tomonidan davlat va jamiyat boshqaruvi masalalariga doir turli g'oyalar ilmiy tahlil etilgan bo'lib, boshqaruvning asosiy maqsadi sifatida adolat va axloqiy me'yorlarga tayanadigan samarali davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish masalasi ularning e'tibor markazida bo'lgan. Bunday qarashlar zamonaviy davlat fuqarolik xizmatiga oid nazariyalar bilan uyg'unlikda tahlil etilib, ularni ushbu dissertatsiya tadqiqoti doirasida chuqur o'rganish davlat boshqaruvi tizimining institutsional sohalarini takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

⁸Olimlarning asarlari va qarashlari dissertatsiya matnida keltirilgan.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Amerikada insoniy munosabatlari maktabi vakillari tomonidan tashkilotlarda xodimlarini tanlash, tarbiyalash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha boshlangan islohotlar xodimlarni boshqarish texnologiyalarini takomillashtirishning yangi davrini boshlab berdi. Sohaga ilmiy boshqaruv maktabi namoyandalarning yondashuvlari joriy qilinishi natijasida tashkilotlarda mehnatni tashkil qilish ilmiy jihatdan tadqiq qilina boshlandi. Xususan, ta'lim muassasalarida «Public administration» o'quv dasturlari joriy etilib, T.Parsons, R.Mertonlarning funksionalizm va strukturalizm, E.Giddensning tuzilma, R.Skottning institutsional, M.Krozening tashkilotning strategik tahlili nazariyalari orqali davlat fuqarolik xizmatini jamiyatning ijtimoiy instituti sifatida o'rganish, O.Kontning taraqqiyot va samaradorlik haqidagi g'oyalari muhim poydevor bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, klassik olimlar T.Gobbs, P.Sorokin, Fredrik U.Teylor, G.Ford, G.Emerson, F.Gilbert, L.Gilbert, A.Fayol, M.Veber, R.Laykert, M.Follet, E.Meyo, Ch.Barnard, D.Mak-Gregor, U.Ouchi, A.Maslou, F.Gersberg, A.Giddens asarlarida davlat xizmatida rahbar shaxsi, hukumat va byurokratiya, mehnatni ilmiy va ratsional tashkil qilish, faoliyat samaradorligi, mehnat faoliyatidagi standartlar, stratifikatsiya, rejalashtirish, funksiyalarni muvofiqlashtirish, nazorat va yetakchilik nazariyalari, xodimlarni rivojlantirish, motivatsiyalash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va boshqa masalalar yoritilgan⁹.

G'arbiy Yevropa va Amerikada shakllangan insoniy munosabatlar maktabi hamda ilmiy boshqaruv nazariyasiga asoslangan yondashuvlar davlat fuqarolik xizmati sohasida tub o'zgarishlarga asos soldi. Ushbu maktablar va nazariy yondashuvlar asosida xodimlarni tanlash, tayyorlash va lavozimlarga joylashtirish ishlari tizimli asosda tashkil etildi, davlat xizmatida rahbar shaxs, byurokratiya, mehnatni ilmiy tashkil qilish, funksiyalar muvofiqligi, samaradorlik va motivatsiya kabi masalalar ilmiy tadqiq etila boshlandi, «Public Administration» fan sifatida shakllanib, funksionalizm, strukturalizm va taraqqiyot nazariyalari davlat xizmatini ijtimoiy institut sifatida anglashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Ta'kidlash lozimki, G'arbiy Yevropa va Amerikada shakllangan insoniy munosabatlar maktabi va ilmiy boshqaruv nazariyalari davlat fuqarolik xizmati tizimida

⁹Parsons T. The social system. Taylor & Francis e-Library 2005. // <https://core.ac.uk/download/pdf/34221806.pdf>; Merton R. Social Theory and Social Structure (1949; rev. ed. 1968) // <https://www.britannica.com/topic/Social-Theory-and-Social-Structure>; Гоббс Т. Сочинения в двух томах. Том I. // Пер. с лат. и англ.; сост., ред. изд., авт. вступ. ст. и примеч. В.В. Соколов. – М.: Мысль, 1989. 622с.; Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. – Москва, 1992. – С. 334.; Taylor F.W. The Principles of Scientific Management. eBook. Most recently updated: November 4, 2011; Эмерсон Г. Двенадцать принципов производительности. – Москва: Экономика, 1992. – 224с.; Gilbreth F.B. Primer of Scientific Management. Adamant Media Corporation, 1999. 107p.; Gilbreth L.M. The psychology of management; the function of the mind in determining, teaching and installing methods of least waste. 1914. New York, Sturgis & Walton Company 344 p.; Henry Fayol. General and Industrial Management. Martino Publishing, 2013. – P. 142.; Max Weber, «Ideal Bureaucracy» in The Theory of Social and Economic Organizations (ed. & trans. Talcott Parsons & Alexander H. Henderson). (New York: Oxford University Press, 1922/1947); Лайкепт Р. Организация человека: Управление и ценность. – NewYork: McGraw Hill, 1967. – 258с.; Mary Parker Follett: Prophet of Management. Boston, 1995. P. 276.; Mayo E. The Human Problems of an Industrial Civilization. Boston, MA: Harvard University Press, 2003. 204 p. DOI: <https://doi.org/10.4324/9780203487273>; Бурганова Л., Савкина Е. Элтон Мэйо: теоретик и практик управления. Монография. – Москва: Инфра-М. – 2013. – С. 111.; Барнард Ч. Функции руководителя: власть, стимулы и ценности в организации. 1968. Перевод В.Кошкина. 2009. Издательство «Социум» 441с. // <https://www.litres.ru/book/chester-barnard/funkcii-rukovoditelya-vlast-stimuly-i-cennosti-v-organizac-3953225/chitat-onlayn/>; Douglas M. McGregor. The Human Side of Enterprise // <https://mitsloan.mit.edu/institute-work-and-employment-research/douglas-m-mcgregor>; William Ouchi's Theory Z // <https://www.geeksforgoeks.org/william-ouchis-theory-z/>; Маслоу А. Мотивация и личность. 3-е изд. Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2019. 400с.; Herzberg's Two-Factor Theory in Project Management // <https://www.wrike.com/blog/what-is-herzbergs-two-factor-theory/>; Sotsiologiya. – Toshkent: «Sharq» NMAK, 2002. – B. 233-274.

institutsional yondashuv asoslarining shakllanishini mustahkamladi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bu sohani institutsional nuqtayi nazardan o'rganish tuzilma va funksiyalar chegarasida cheklanib qolmasdan, inson salohiyati, raqamli texnologiyalarning tizimga integratsiyalashuvi, shuningdek, fuqarolar va jamoatchilik bilan munosabatlardagi yangi institutsional o'zaro ta'sir mexanizmlarini ham qamrab olishi lozim. Bu kabi murakkab va ko'p qirrali jarayonlarni tadqiq etish multidissiplinar yondashuvlarni talab qiladi hamda davlat fuqarolik xizmatini yangicha modellashtirishda innovatsion ilmiy paradigmalarning o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari olimlari G.Borshevskiy, N.Dexanova, G.Atamanchuk, S.Jukova, N.Korostilyeva, A.Margolin, P.Dutkevich, V.Manoxin, K.Magomedov, A.Turchinov, Yu.Kozlov, Yu.Starilov, A.Baxrax, Yu.Antropov, B.Lazarev, A.Obolonskiy, G.Dosmagambetova, A.Rzaev, G.Suleymenova, O.Chupris, A.Nasirov va boshqalarning asarlarida davlat xizmati, uning tarixiy shakllanishi va tizimi, ma'muriy-huquqiy, ijtimoiy, siyosiy jihatlar, davlat xizmatchilarining ijtimoiy maqomi, professional faoliyati samaradorligini baholash va boshqa masalalari yoritilgan¹⁰.

MDH olimlari o'z asarlarida davlat xizmatining tarixiy rivojlanishi, huquqiy asoslari, ma'muriy tuzilishi, davlat xizmatchilarining maqomi va faoliyatiga oid masalalarni keng qamrab olgan bo'lsalar-da, global tendensiyalar va boshqaruv amaliyotidagi yangilanishlar kontekstida davlat fuqarolik xizmatining ayrim muhim yo'nalishlari sotsiologik jihatdan yetarlicha darajada empirik tahlil etilmagan.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng davlat boshqaruvi va davlat xizmatini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, sotsiologiya, huquqshunoslik, falsafa kabi turli ilmiy sohalarda keng qamrovli tadqiqotlar olib borildi. Bu borada M.Bekmurodov, T.Matibayev, A.Xolbekov, Sh.Sodiqova, A.Seitov, O.Abdudzimov, A.Yuldashev, S.Otamuratov, B.Farfiyev kabi sotsiolog olimlarning tadqiqotlarida davlat boshqaruvi, boshqaruv sotsiologiyasi, davlat xizmati samaradorligini oshirish, kadrlar siyosati, davlat xizmatchilarini tayyorlash, kasbiy madaniyatini rivojlantirish, davlat xizmatchisi etikasi va imiji, ma'naviy-axloqiy jihatlar, korrupsiyaga

¹⁰Борщевский Г.А. Государственная служба. – Москва: Юрайт. 2021. – С. 318.; Деханова Н.Г. Социология государственной службы. – Москва: Юрайт, 2021. – С. 13.; Атаманчук Г.В. Сущность государственной службы: история, теория, закон, практика: Монография. Изд-2-е. доп. – Москва: РАГС. 2008. – С. 122.; Жукова С.М. Государственная гражданская служба в Российской Федерации: монография. – Оренбург: ООО ИПК «Университет», 2014. – 116 с.; Коростылева Н.Н. Социологический мониторинг проблем профессионального развития и кадровых процессов в государственной гражданской службе. – Москва. 2014. – 31 с.; Новые технологии государственного управления в зеркале канадского и российского опыта: монография / под ред. А.М. Марголина и П. Дуткевича. – М.: Моск. городск. ун-т управления Правительства Москвы, 2013. – 272 с.; Манохин В.М. Государственная служба. – Москва., 1966. – С. 5-14.; Магомедов К.О. Социология государственной службы. – Москва: Изд-во РАГС, 2010. – С. 49-50.; Проблемы профессионального развития и кадровых процессов на государственной гражданской службе: социологический анализ: Монография. – М.: Издательство ООО «Буки Веди», 2014. – 234 с.; Козлов Ю.М. Административное право. – Москва: 1999. – С. 58.; Стариков Ю.Н. Институт государственной службы: содержание и структура // Государство и право, 1996. № 5. – С. 14.; Бахрах А.П. Административное право. – Москва., 1993. – С. 102.; Антропов Ю.Ю. Современные кадровые технологии на государственной гражданской службе: монография. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2015. – 172 с.; Лазарев Б.М. Государственная служба. – Москва: БЕК, 1993. – С. 5-6.; Государственная служба (комплексный подход) / Отв. ред. А.В. Оболюнский. – Москва: Дело, 2003.; Рзаев А.Г. Реформы государственной службы: зарубежный опыт и реалии Азербайджана. Научный журнал Право и управление. XXI век. 2009. №1. – С. 94-100.; Досмагамбетова Г.И. Совершенствование методов оценки деятельности государственных служащих: монография. – Астана, 2014. – 159 с.; Чуприс О.И. Теоретико-правовые проблемы государственной службы Республики Беларусь. – Минск: Право и экономика, 2009. – 310 с.; Насыров А.Т. Основы государственного и муниципального управления Кыргызской Республики. – Бишкек. 2017. – 254 с.

qarshi kurashish, davlat va jamiyat o'rtasidagi kommunikatsion aloqalari kabi masalalar davlat fuqarolik xizmatining tarkibiy qismi sifatida o'rganildi¹¹.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirishga doir muammolarning ayrim sohalari alohida yo'nalishlar kesimida tadqiq etilgan bo'lib, bunda davlat xizmati, davlat xizmatchilarining faoliyati, kasbiy madaniyatini rivojlantirish va axloqini shakllantirish kabi jihatlariga e'tibor qaratilgan. Xususan, siyosatshunoslar Q.Q. Quranboyev davlat boshqaruv kadrlar tizimi: shakllanish va rivojlanish bosqichlari, F.R. Ravshanov rahbar kadrlar tanlash asoslari, M.U. Atamuratov rahbar va boshqaruv kadrlar tizimining modernizatsiyalash jarayoni, O.A. Xasanov O'zbekistonda siyosiy modernizatsiya jarayonlarida davlat kadrlar siyosatini rivojlantirish tendensiyalari, O.B. Shakarov davlat xizmatchilari faoliyatida axloqiy sifatlarning o'rni, K.M. Mirzaaxmedov aholiga sifatli davlat xizmatlarini ko'rsatishning siyosiy hokimiyat legitimligidagi o'rni; iqtisodchi A.O. Ochilov yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish; faylasuflar L.A. Muhammadjanova davlat xizmatchisining etikasi va imiji, Yo.O. Ernazarova davlat xizmatchisi kasbiy madaniyatining rivojlanishi; huquqshunoslar O.T. Husanov davlat fuqarolik xizmati huquqiy asoslarining rivojlanish istiqbollari, N.Sh. Said-Gaziyeva davlat xizmatini isloh etish masalalari, E.T. Xojiyev davlat xizmatini takomillashtirish va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, X. Azizov, X. Xayitov, Sh. Asadov, A. Yo'ldoshev, D. Bekchanov, F. Yuldashevalar davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish, F.B. Maxmudov davlat xizmatda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, B.B. Alimov, D. Raximovlar davlat xizmatini tasniflash bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar¹².

¹¹Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. – Toshkent: «Yoshlar nashriyot uyi», 2020. – 436 b.; Matibayev T.B. Ijtimoiy hamkorlik – millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash vositasi. – Toshkent: «Yangi kitob», 2016. – B. 184.; Xolbekov A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi. – Toshkent: Akademiya, 2007. – B. 34-35.; Yuldashev A.E. Mahalliy boshqaruvga oid milliy tadqiqotlar tahlili. – Educational Research in Universal Sciences. 2023. – B. 172-186.; Sodiqova Sh.M. O'zgarishlar sotsiologiyasi. – Toshkent: Akademiya, 2020.; Сеитов А.П. Социологическое видение восточной цивилизации: генезис и дальнейшие перспективы / Монография. – Ташкент: А.Навои, 2019. 184 с.; Abduazimov O.U. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri monitoringini ta'minlashda ommaviy kommunikatsiyalar sotsiologiyasining o'rni (O'zbekiston ommaviy axborot vositalarining 2001-2016-yillardagi materiallari misolida). Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya», 2016, 352 b.; Otamuratov S.A. «Yangi O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy-innovatsion jarayonlardagi transformatsiyalashuvi: sotsiologik tahlil». Sos.f.d. (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: DBA, 2021. – 123 b.; Фарфиев Б.А. Менталитет как социологическая категория. Общественные науки в современном мире. 2019. – С. 33-37.

¹²Quranboyev Q.Q. «Davlat boshqaruv kadrlar tizimi: shakllanish va rivojlanish muammolari». s.f.d. dissertatsiyasi. – Toshkent: DBA, 2008. – 226 b.; Ravshanov F.R. Davlat fuqarolik xizmatchisining ma'naviy qiyofasi (Risola). – Toshkent: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2023. – 296 b.; Atamuratov M.U. «O'zbekistonda rahbar va boshqaruv kadrlar tizimining modernizatsiyalash jarayoni». s.f.d. dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zMU, 2018. – 150 b.; Xasanov O.A. «O'zbekistonda siyosiy modernizatsiya jarayonlarida davlat kadrlar siyosatini rivojlantirish tendensiyalari». S.f.d. (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: DBA, 2022. – 208 b.; Shakarov O.B. Davlat xizmatchisi faoliyatida axloqiy sifatlarning o'rni. Academic Research in Educational Sciences. Vol.2, Issue 12, 2021. // https://ares.uz/storage/app/media/2021/Vol_2_No_12/713-718.pdf; Mirzaaxmedov K.M. «Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirishda siyosiy hokimiyat legitimligini takomillashtirish mexanizmlari». S.f.d. (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zMU, 2023. – 225 b.; A.O. Ochilov «Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish». s.f.d. (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: TDIU, 2018. – 242 b.; Muhammadjonova L.A. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. – Toshkent: Universitet, 2017. – 46 b.; Ernazarova Yo.O. «Davlat xizmatchisi kasbiy madaniyati rivojlanishining falsafiy-konseptual tahlili». F.f.d. (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zMU, 2024. – 260 b.; Husanov O.T. O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmati huquqiy asoslarining rivojlanish istiqbollari. Sotsiologiya va huquq ilmiy jurnali. 2024. 1-jild, 2-son. – B. 58-65.; Said-Gaziyeva N.Sh. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatini isloh etish masalalari. – T.: TDYuU, 2008. – 260.; Xojiyev E.T., Ismailova G.S., Raximova M. A. Davlat xizmati. Toshkent: Baktria press, 2015. – 172 b.; Azizov X. va boshq. O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish masalalari. Monografiya. – Toshkent: «Shifoat Nur Fayz», 2020. – 366 b.; Maxmudov F. Davlat fuqarolik xizmatini o'tashda manfaatlar to'qnashuvi va uning yuridik tabiati. TDYuU

Mahalliy olimlar tomonidan olib borgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy fanlar doirasida davlat fuqarolik xizmatiga oid masalalar alohida tartibda, tarqoq holda o'rganilgan bo'lib, mazkur sohaning institutsional asoslari, tizimli muvofiqlashuvi va maqsadli tashkil etilishi kabi muhim jihatlari yetarli darajada kompleks tahlil etilmagan. Bu esa davlat fuqarolik xizmatini yaxlit institut sifatida tadqiq qilish, uning ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy va amaliy xususiyatlarini chuqur o'rganish zaruratini ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, davlat fuqarolik xizmatini institutsional takomillashtirishga ta'sir etuvchi sotsiologik omillarni dissertatsiya doirasida tadqiq etish, bu sohada yangi nazariy-konseptual yondashuvlar va ilmiy modellar ishlab chiqishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishi rejasining «Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va prognozlashtirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish va kompleks dasturini yaratish» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatining institutsional asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Dissertatsiya oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun **tadqiqot vazifalari** quyidagicha belgilangan:

davlat fuqarolik xizmati va uning ijtimoiy institut sifatidagi tushunchalarini yoritib beruvchi konseptual qarashlarni tahlil etish va sintezlash;

davlat va jamiyat boshqaruvi, tashkilotlarda xodimlar faoliyatini ilmiy yondashuv asosida tashkil qilishga oid ta'limotlarni tahlil qilish;

davlat xizmatini rivojlantirish bo'yicha yetakchi mamlakatlar tajribasini va taraqqiyot tendensiyalarini tadqiq qilish;

davlat fuqarolik xizmatini professional faoliyat sifatida o'rganish, sohani raqamlashtirish va Elektron hukumatni rivojlantirish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish;

nomzodlarni tanlash tizimida meritokratiya qoida va mezonlarning xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish, davlat fuqarolik xizmatchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari tahlili asosida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

davlat fuqarolik xizmatchilarining ijtimoiy kafolatlari davlat fuqarolik xizmatining imiji va faoliyat samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini asoslash;

davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish, uning ijtimoiy maqomini oshirishga xizmat qiluvchi masalalarni sotsiologik so'rov natijalari asosida tahlil qilish;

davlat fuqarolik xizmatidagi tashkiliy-madaniy an'analar va kasbiy qadriyatlarni, shuningdek sohaning ustuvor yo'nalishlarini nazariy va amaliy jihatdan sintezlash;

O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini institutsional takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tahlillar va amaliyotga asoslangan strategik taklif hamda tavsiyalar majmuasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini O‘zbekistondagi davlat fuqarolik xizmati tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini institutsional takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, tendensiyalari va mazkur jarayonda vujudga keladigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar olindi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kuzatish, analiz va sintez, kontent-tahlil, qiyosiy tahlil, tarkibiy-funksional va tizimli tahlil, anketa so‘rovi hamda ekspert baholash kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

faoliyat samaradorligini oshirishda raqamlashtirish va «aqli boshqaruv» (smart governance) tamoyillarini joriy etish orqali davlat organlari va tashkilotlarining funksiyalarini tizimlashtirish, pasportini yaratish, ma'lumotlarni raqamlashtirish, monitoring qilish va ularning ochiq reyestrini yuritish zaruriyati asoslantirilgan;

davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy bilim va ko‘nikmalari, lavozim majburiyatlarini bajarish salohiyatini kognitiv (nazariya, konsepsiya, bilim va tushunish), funksional (ko‘nikma (hard skills & soft skills), mahorat, (tashabbuskorlik), shaxsiy (xulq-atvor kompetensiyasi, vazifani bajarish uchun qanday yo‘l tutish kerak), etika (shaxsiy, professional va tashkiliy qadriyatlarga asoslangan), metakompetensiya (mohiyatni chuqur anglay olishi (kvintessensiya), noaniq vaziyatda to‘g‘ri yo‘l topa olish qobiliyati, tanqidiy fikrlash) kompetensiyalarini shakllantirish modeli va ularni baholash metodikasi asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatida fuqarolarning ishtirokini oshirish va qarorlar qabul qilishda jamoatchilik fikrini hisobga olish orqali davlat fuqarolik xizmatining keng jamoatchilik bilan ishlash samaradorligini ochiq platformalar va Crowd-sourcing (omma resurslari) metodidan foydalangan holda oshirish zaruriyati asoslangan;

davlat fuqarolik xizmatida vazifalarni va vakolatini bajarishi davomida faoliyat samaradorligini ta'minlash maqsadida davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini samaradorligini progressiv va regressiv toifadagi ko‘rsatkichlar asosida baholash asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatidagi rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini besh bosqichli ADDIE modeli (Analysis – tahlil qilish, Design - loyihalash, Development – rivojlantirish, Implementation – joriy qilish, Evaluation – sifatni baholash) asosida kompleks baholash tartibini takomillashtirish orqali rahbarlarning shaxsiy-professional rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqish protsedurasining uslubiy asoslari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

faoliyat samaradorligini oshirishda davlat idoralari funksiyalarini tizimlashtirish, monitoringini amalga oshirish, raqamlashtirish va ularning ochiq reyestrini yuritish orqali davlat fuqarolik xizmatida shaffoflikni ta'minlashga oid normativ-huquqiy hujjatning tegishli bandlari ishlab chiqilgan;

davlat fuqarolik xizmatchilarining kognitiv, funksional, shaxsiy, etika, metakompetensiya, tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar «Respublika ijro etuvchi organlari, tijorat banklari, xo‘jalik birlashmalari rahbarlari va o‘rinbosarlarining rahbarlari va o‘rinbosarlarining sohadagi professional bilim va ko‘nikmalarini oshirish» nomli o‘quv-amaliy qo‘llanmaning «Rahbar kadrlarning

professional kompetensiyalariga oid xalqaro talablar va tavsiyalar: kadrlar salohiyatini rivojlantirishning xalqaro ta'lim dasturlari imkoniyatlari»ga oid qismini boyitishga xizmat qilgan;

davlat fuqarolik xizmatining keng jamoatchilik bilan ishlash samaradorligini oshirishda ochiq platformalar va omma resurslari metodidan foydalanish orqali davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirishda fuqarolarning ishtirokini oshirish, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik fikrlarini hisobga olish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash taklif etilgan;

davlat fuqarolik xizmatidagi rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini besh bosqichli ADDIE modeli asosida kompleks baholash tartibini takomillashtirish orqali rahbarlarning shaxsiy-professional rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqish protsedurasi taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotdagi tahlillar, yondashuvlar, umumlashmalar, yetakchi xorijiy davlatlar tajribasiga oid ma'lumotlar, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi va xorijiy ilmiy jurnallarida chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiya, dissertant tomonidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish bilan bog'liqligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati davlat fuqarolik xizmatini o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarni yanada boyitish, boshqaruv jarayonida davlat fuqarolik xizmatining o'rni va ahamiyatini metodologik jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Ushbu natijalar davlat fuqarolik xizmatining institutsional sohalarini takomillashtirishga, sotsiomadaniy hamkorlikni mustahkamlashga, jamiyat manfaatlariga yo'naltirilgan ijtimoiy adolat va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan institut sifatida rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotda bayon etilgan nazariy xulosalar va ilmiy fikr-mulohazalar amaliyotga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatli bo'lib, ular oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat va magistratura bosqichlarida o'qitiladigan «Boshqaruv sotsiologiyasi», «Inson resurslari sotsiologiyasi», «Strategik menejment», «Ijtimoiy o'zgarishlar sotsiologiyasi» kabi fanlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu natijalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi o'quv rejasidagi «Davlat xizmati», «Boshqaruv qarorlari qabul qilish», «Rahbar kadrlarda emotsional toliqish» kabi fanlarni mazmunan boyitish, ularni tahlil va interaktiv o'qitish texnologiyalari asosida qayta ishlashda, fanlar uchun yangi avlod darsliklari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va keystadilarni ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Olingan natijalar ta'lim mazmunini innovatsion va integrativ modellar asosida qayta tashkil etish, fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash va davlat boshqaruvi sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ilmiy-uslubiy tavsiyalarni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Davlat fuqarolik xizmatini institutsional rivojlantirish asoslarini tadqiq qilish natijasida:

faoliyat samaradorligini oshirishda raqamlashtirish va «aqli boshqaruv» (smart governance) tamoyillarini joriy etish orqali davlat organlari va tashkilotlarining funksiyalarini tizimlashtirish, pasportini yaratish, ma'lumotlarni raqamlashtirish, monitoring qilish va ularning ochiq reyestrini yuritish zaruriyatiga oid takliflaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-noyabrdagi «Respublika ijro etuvchi organlari funksiyalarining ochiq reyestrini yuritish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 796-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining 2025-yil 22-yanvardagi LJ59245860-sonli ma'lumotnomasi). Xususan, Respublika ijro etuvchi organlari funksiyalarining ochiq reyestrini yuritish chora-tadbirlari to'g'risidagi nizomning 3-bandi (reyestri yuritishning asosiy maqsadi) va 12-bandi (Reyestrga kiritiladigan ma'lumotlarning turlari)ni ishlab chiqishda foydalanilgan. Ushbu natijalarning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida respublika ijro etuvchi davlat organlarining (vazirliklar, qo'mitalar, agentliklar, inspeksiyalar) funksiyalarini tizimlashtirish, monitoring qilish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona ochiq elektron bazasini shakllantirish belgilab qo'yildi. Bu esa davlat organlarining funksiyalarini tizimlashtirish, monitoring qilish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona ochiq elektron bazasini shakllantirishga xizmat qiladi;

davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalari, lavozim majburiyatlarini bajarish salohiyatini kognitiv (nazariya, konsepsiya, bilim va tushunish), funksional (ko'nikma (hard skills & soft skills), mahorat, tashabbuskorlik), shaxsiy (xulq-atvor kompetensiyasi, vazifani bajarish uchun qanday yo'l tutish kerak), etika (shaxsiy, professional va tashkiliy qadriyatlarga asoslangan), metakompetensiya (mohiyatni chuqur anglay olishi (kvintessensiya), noaniq vaziyatda to'g'ri yo'l topa olish qobiliyati, tanqidiy fikrlashi) kompetensiyalarini shakllantirish modeli va mezonlar asosida baholash metodikasiga oid taklif va tavsiflardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4365-son qarorining 6-bandi «a» kichik bandi 1 va 2-xatboshilarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining 2024-yil 3-dekabrdagi 03-19/874-sonli ma'lumotnomasi). Xususan, «O'zbekiston Respublikasi ijro etuvchi organlari, tijorat banklari, xo'jalik birlashmalari rahbarlari va o'rinbosarlarining sohadagi professional bilim va ko'nikmalarini oshirish» nomli o'quv-amaliy qo'llanmasining «Rahbar kadrlarning professional kompetensiyalariga oid xalqaro talablar va tavsiyalar: kadrlar salohiyatini rivojlantirishning xalqaro ta'lim dasturlari imkoniyatlari» nomli qismini tayyorlashda foydalanilgan. Ushbu takliflardan vazirlik va idoralar markaziy apparatlari boshqaruv kadrlari hamda Samarqand, Qashqadaryo, Sirdaryo, Namangan va Navoiy viloyatlarining mahalliy davlat hokimiyati organlarining kadrlar bilan ishlashga mas'ul tuzilmalari rahbarlari uchun tashkil etilgan malaka oshirish kurslari tashkiliy va dasturiy jihatdan metodologik takomillashtirilgan;

ochiq platformalar va Crowd-sourcing (omma resurslari) metodi orqali davlat xizmatining keng jamoatchilik bilan ishlash samaradorligini oshirish va davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirishga oid takliflardan «Ijtimoiy fikr» respublika jamoatchilik

fikrini o'rganish markazi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-fevraldagi «Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ–5667-son qarorining 2-bandi (davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida, davlat va jamiyat qurilishida – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari rolini yanada kuchaytirishga, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar) ning ijrosi va 2019-yil 9-dekabrda «Byurokratik to'siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ–4546-son qarorining 11-bandi («Ijtimoiy fikr» respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markaziga davlat organlari va tashkilotlari xodimlari o'rtasida mazkur qaror talablariga rioya qilish holati bo'yicha anonim so'rovnoma o'tkazish tavsiya etilsin) ijrosini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlarda foydalanilgan («Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazining 2024-yil 28-noyabrda 01-16/189-son ma'lumotnomasi). Natijada keng jamoatchilik fikrlarini hisobga olish orqali davlat organlarining samarali ishlashiga va davlat fuqarolik xizmati tizimini sotsiologik o'rganishni yanada takomillashtirish imkonini bergan;

davlat fuqarolik xizmatida vazifalarni va vakolatini bajarishi davomida faoliyat samaradorligini ta'minlash maqsadida davlat xizmatchilari faoliyatini samaradorligini progressiv va regressiv toifadagi ko'rsatkichlar asosida baholashga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi «Respublika va mahalliy ijro etuvchi organlari hamda xo'jalik birlashmalari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholashni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 463-son qarori bilan tasdiqlangan «Respublika va mahalliy ijro etuvchi organlari hamda xo'jalik birlashmalari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash tartibi to'g'risida»gi Nizomning 30-bandi «a» qismi (progressiv va regressiv toifalaridagi samaradorlik ko'rsatkichlari)ni tayyorlashda va tegishli formulani ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining 2025-yil 22-yanvardagi LJ59245860-sonli ma'lumotnomasi). Natijada davlat organlarida faoliyat samaradorligi va natijadorligini oshishiga, tashkilotlarda shaffoflikni ta'minlashga, faoliyat samaradorligini ko'rsatkichlar asosida baholash imkoniyatini yaratgan;

davlat fuqarolik xizmatidagi rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini besh bosqichli ADDIE modeli (Analysis – tahlil qilish, Design – loyihalash, Development – rivojlantirish, Implementation – joriy qilish, Evaluation – sifatni baholash) asosida kompleks baholash tartibini takomillashtirish orqali rahbarlarning shaxsiy-professional rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqishga oid tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi “Rahbar kadrlarni baholash markazini tashkil etish to'g'risida”gi 629-sonli qarorining 2-bandi 3-xatboshisi (davlat fuqarolik xizmatchilarini shaxsiy-professional diagnostika qilish, kompetensiyalar modeli asosida kompleks baholash) va 5-xatboshisini (kompetensiyalarni baholash natijalari asosida rahbar kadrlar uchun shaxsiy-professional rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqish va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirish)ni shakllantirishda

foydalanilgan (Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining Rahbar kadrlarni baholash markazining 2025-yil 9-martdagi № 06-19/1-11-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, davlat fuqarolik xizmatini salohiyatli va istiqbolli kadrlar bilan ta'minlashda nomzodlarning bilim va ko'nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida baholash, rahbar kadrlarning boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishda manzilli choralar ko'rishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta respublika, 4 ta xalqaro ilmiy va amaliy konferensiyalarda ma'ruzalar shaklida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot ishlarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 dan ortiq ilmiy ishlar chop etilgan, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 11 ta maqola, jumladan 9 tasi respublika, 2 tasi xalqaro nashrlarida nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ushbu tadqiqot ishi kirish, o'n ikkita paragrafni o'zida mujassamlashtiruvchi to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 246 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhlangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti, tadqiqot usullari aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Davlat fuqarolik xizmatini institutsional rivojlantirishning nazariy – metodologik jihatlar**» deb nomlangan birinchi bobida davlat fuqarolik xizmatining ijtimoiy institutsionallasuvi sotsiologik jihatdan nazariy-metodologik tahlil qilingan. Bunda amerikalik sotsiolog olim T.Parsonsning funksionalizm nazariyasi asosida ijtimoiy tizimdagi har bir elementning o'zaro aloqadorligi, muayyan ijtimoiy funksiyalarni bajarishi orqali institutlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi ochib berilgan.

Ushbu nazariyaga asoslangan holda davlat fuqarolik xizmatini ijtimoiy institut sifatida qaralib, uning jamiyatdagi faoliyati ma'lum bir vazifalarni bajarishi, siyosiy tuzilma bilan uzviy bog'liqlikda ish olib olib borishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davomida muhim funksiyalarni amalga oshiradi va siyosiy qarorlar ijrosini ta'minlash uchun yetarli vakolatlarga ega bo'lishi bilan izohlanadi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilgan holda davlat fuqarolik xizmatining ijtimoiy institut sifatidagi xususiyatlari tizimlashtirib olindi (1-rasm).



1-rasm. Davlat fuqarolik xizmatining ijtimoiy institut sifatidagi xususiyatlari

Dissertatsiyada davlat fuqarolik xizmatining nazariy-metodologik va institutsional asoslanishi quyidagicha tahlil qilindi: 1) siyosiy rejimga bog'liq ravishda hukumat tomonidan tashkil qilinadi va boshqariladi; 2) lavozim va maqomlar iyerarxik tartibda shakllantiriladi; 3) huquqiy normalarga, funksiyalarga va vakolatlarga ega; 4) xizmat etikasi va belgilangan axloqiy qadriyatlarga rioya qiluvchi kadrlar tarkibidan iborat; 5) boshqa siyosiy va ijtimoiy institutlar bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlariga ega bo'ladi.

Tadqiqot ishida davlat fuqarolik xizmati ijtimoiy institut sifatida jamiyatda qator muhim funksiyalarni amalga oshirishi nazariy jihatdan asoslab berildi: a) jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratadi va davlatning ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi; b) ijtimoiy munosabatlar doirasida jamoa a'zolarining harakatlarini muvofiqlashtiradi, bunda istalgan harakatlarni amalga oshirilishini ta'minlaydi, noqonuniy va istalmagan harakatlarni cheklaydi; d) umumiy funksiyalarning bajarilishini ta'minlash orqali jamiyatdagi barqaror turmush tarzini olib borilishini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlaydi; e) individlarning birgalikdagi harakatlari va munosabatlari orqali jamoada jipslikni shakllantirishning institutsional asoslarini yaratadi.

Davlat fuqarolik xizmatining tartibga soluvchi (boshqaruv), ta'minlovchi va texnologik funksiyalari ajratib ko'rsatildi. Ushbu xizmatning jamiyatdagi (ijtimoiy institut tabiati, uning maqsad va funksiyalari); davlat xizmatchilarining ijtimoiy qatlamidagi (qadriyatlar, an'analar va normalar) hamda davlat fuqarolik xizmatchisidagi (ijtimoiy maqom, nufuz, imij, reyting) ijtimoiy xususiyatlari atroflicha yoritildi.

XIX asrdan hozirgi kunga qadar AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida davlat xizmatining mohiyati va mazmuniga oid zamonaviy ilmiy qarashlar shakllana boshlandi. Ushbu mamlakatlarda davlat xizmatchilarini tayyorlash, tashkilotlarda mehnatni samarali tashkil qilish va yuqori darajadagi samaradorlikka erishish bo'yicha ilmiy boshqarish, ma'muriy, insoniy munosabatlar va boshqaruvning empirik maktablari shakllandi. Mazkur ilmiy maktablar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar retrospektiv tahlil asosida quyidagicha tizimlashtirib olindi (2-rasm).

Ilmiy boshqaruv maktabi	F.Teylor, G.Emerson, G.Ford, F. va L. Gilbretlar	mehnatni ilmiy va ratsional tashkil qilish, mehnat tamoyillarini ishlab chiqish
Ma'muriy boshqaruv maktabi	A. Fayol, L.Urvik, Dj. Muni, G.Gant	mehnatni rejalashtirish, funksiyalarni muvofiqlashtirish, nazorat va yetakchilik nazariyasi
Byurokratik tashkilot maktabi	M. Veber, R. Merton	maqsadga erishish yo'llari, ishning aniq tavsiflari, qoidalar va tartiblarni ishlab chiqish
Insoniy munosabatlar maktabi	G. Myunsterberg, M.Follet, E. Meyo	xodimni ijtimoiy rivojlanishi
Bixevioristik maktab	A. Maslou, D.Makgregor, F. Gersberg, R.Laykert	xodimni ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish muammolarini hal etish
Resurslarni boshqarish maktabi	M. Armstrong, Ye. Louler, Dj. Pfeffer	xodim tashkilotning investitsiyviy resursi va alohida iqtisodiy qiymati
Empirik boshqaruv maktabi	P. Druker, R. Daft, A.Chandler	xodimga jismoniy va aqliy mehnatning yaratuvchisi va kapital sifatida qarash
Yangi boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv	T.Piters, R.Uoterman, M.Porter, G.Minsburg	bozor mexanizmlari ustuvor, samaradorlik, boshqaruv, natijadorlikka yo'naltirilgan va markazlashmagan, hamkorlikdagi yondashuv
Jamoaviy qadriyatlar, raqamli boshqaruv va elektron hukumat	B.Denxart, M.Lippers, Sh.Madon, K.Reddik	qadriyatlar, legitimlik, adolatlilik, shaffoflik, xizmat ko'rsatish, boshqaruvga fuqarolarni jalb qilish

2-rasm. Mehnatni tashkil qilish va samaradorlikka erishish nazariyalarining evolyutsiyasi

O'zbekiston hududida davlatchilik va davlat boshqaruvining shakllanishi tarixi qadimgi davrlarga, ya'ni miloddan avvalgi uchinchi ming yillik o'rtalariga borib taqalishi e'tiborga olinadigan bo'lsa, xalqimiz davlat xizmati sohasida juda katta tarixga egaligini ko'ramiz. Dissertatsiyada ilk davlatchilik sivilizatsiyasi, mamlakatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish, jamoada yo'l boshchilarni shakllanishi, davlatni adolatli boshqarish, jamiyatdagi turli qatlamlarning munosabatlarini tartibga solishda davlat xizmati va samarali boshqaruv sohasiga oid ta'limotlar retrospektiv tahlil qilindi. Bunda Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur, Ibn Xaldun, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xoja Samandar Termiziy, Hofiz Tanish Buxoriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi mutafakkir va davlat arboblarning asarlarida adolatli jamiyat qurish, davlat tuzumi va boshqaruviga doir tartib-qoidalarga, ijtimoiy-siyosiy va siyosiy-axloqiy munosabatlar, fozillar shahrining birinchi rahbari o'n ikkita xislatlarga ega bo'lishi, «fozil» va «johil» shaharlarda hokimiyatni amalga oshirish, rahbarlik qilish, uning asosiy vazifasi mamlakatning ravnaq topishi to'g'risidagi ta'limotlari yoritildi. Jadid ma'rifatparvarlarining davlat boshqaruviga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish orqali davlat xizmati tizimini takomillashtirish va fuqarolarning hayotini har tomonlama isloh qilishga oid tashabbus va amaliy harakatlari tahlil qilindi.

Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida general-gubernatorlik tomonidan amirlik va xonliklarning boshqaruv tizimiga ta'sir o'tkazish, Sovetlar hokimiyati davrida mamlakatimizda davlat boshqaruvi, kadrlar siyosati Kommunistik partiyaning markaziy siyosiy yo'nalishi asosida shakllantirilganligi ilmiy asosda ochib berilgan. Markaziy Osiyoda ma'muriy-hududiy bo'linish amalga oshirilgandan keyin O'zSSRda Kommunistik partiyaning nomenklatura tizimining joriy qilinishi va ushbu jarayon to'liq partiya nazoratiga olinganligi yoritib berilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar sharoitida davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirishga va faoliyat mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday sharoitda davlat fuqarolik xizmatini institutsional rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Bugun hayotning o'zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo'l ochish bo'yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda»¹³.

Tadqiqot ishining «**Davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirishda davlat-xizmat munosabatlariga sotsiologik yondashuvning ijtimoiy zaruriyati**» deb nomlangan ikkinchi bobida davlat fuqarolik xizmatiga nomzodlarni tanlash tizimini meritokratiya asosida takomillashtirish, davlat fuqarolik xizmatining kasbiy faoliyat sifatidagi xususiyatlari tahlil qilingan. Xususan, davlat fuqarolik xizmatiga nomzodlarni tanlashning prinsiplari, kadrlar tarkibini shakllantirish bosqichlari, ichki va tashqi tanlov turlari tizimli ravishda tasniflangan (3-rasm).



3-rasm. Tashkilotlarda kadrlar tarkibini shakllantirish bosqichlari

Davlat fuqarolik xizmatiga nomzodlarni qidirish va tanlashning zamonaviy rekruting texnologiyalari, xususan rekruting, executive search, headhunting, sourcing, networking, preliminarining, autsorsing, smartstaffing, kadrlar lizingi kabi usullar mazmunan tahlil qilingan. Sotsiologik nuqtayi nazardan ushbu

¹³O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil 25-dekabr // <https://president.uz/uz/lists/view/1371>

texnologiyalarning amalda qo'llanilishi mehnat bozoridagi ijtimoiy tendensiyalarni va kadrlar harakatini o'rganishga imkoniyat yaratishi ochib berilgan.

Dissertatsiyada «davlat fuqarolik xizmati» tushunchasini institutsional yondashuv asosida tavsiflashda professional faoliyatining turi sifatidagi qarashlari yoritilgan. Xususan, E.Dyurkgeym, G.Spenserlarning mehnat taqsimotiga oid nazariyalari, aholi sonining o'sishi va jamiyat kengayib borishi bilan mehnat jarayonining murakkablashuvi va ixtisoslashuviga oid ta'limotlar tahlil qilingan. Ijtimoiy stratifikatsiya nazariyasi asosida P.Sorokin va T.Parsonslarning «kasbiy faoliyat»ning yuqori va quyi iyerarxik darajalarga ajratish, ommaviy xarakterdagi faoliyat turlarining jamiyatdagi o'rniga oid fikrlari o'rganilgan.


Davlati xizmati tushunchasi XVIII asrning oxirlarida Buyuk Britaniyaning kolonial ma'muriyati bo'lgan Hindistonda shakllangan. Ushbu tushuncha Ost-Indiya kompaniyasi bo'linmasini fuqarolik va harbiy xodimlarni bir-biridan ajratish uchun ishlatilgan¹⁴. Kontinental huquqiy tizimga ega bo'lgan davlatlarda (Germaniya, Fransiya) ommaviy xizmat (davlat xizmati) tushunchasiga yagona tizim sifatida qaraladi va funksional jihatdan qonunchilik bilan tartibga solingan. Anglosakson davlatlarida (AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Yangi Zelandiya, Avstraliya) mazkur tushuncha yagona status sifatida huquqiy jihatdan tartibga solinmagan bo'lib, uning institutsional jihatlari va xizmat turlari farqlanishiga ko'ra ko'plik shaklida qo'llanilgan. Ushbu tushuncha ko'pchilik holatlarda davlat boshqaruvi bilan bog'liq bo'lgan davlat fuqarolik xizmatida qo'llaniladi. Sud tekshiruvi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda, ushbu termin davlat xizmatining barcha sohalariga nisbatan qo'llaniladi, bunda qurolli kuchlardagi xizmat istisno etiladi¹⁵.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi O'RQ-788-sonli Qonunida¹⁶ davlat fuqarolik xizmati – davlat xizmatining bir turi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlashga doir haq to'lanadigan kasbiy faoliyatni ifodalashi, belgilab qo'yilgan. Mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatining kasbiy faoliyat sifatidagi prinsiplari, belgilari, kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borish elementlari tahlil qilindi. Ushbu sohadagi adabiyotlarni tahlil qilgan holda davlat fuqarolik xizmatining kasbiy faoliyat turi sifatida quyidagicha turkumlab olindi (4-rasm).

¹⁴Mohyuddin Z., Muhammad Y.A. The Development of Indian Civil Service in British India: An Analysis. Journal of Historical Studies Vol. VII. No. I (Jan-Jun 2021) PP 80-90 // https://jhs.bzu.edu.pk/upload/Vol-I-21_Article-%205-vol-7-JHs.pdf_54.pdf

¹⁵Электронный словарь «Dictionary.com» // [http://dictionary.reference.com/browse/civil service](http://dictionary.reference.com/browse/civil%20service)

¹⁶O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi O'RQ-788-sonli Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/6145972>



4-rasm. Davlat fuqarolik xizmatining kasbiy faoliyat turi sifatida turkumlanishi

Ushbu bobda davlat xizmatining anglo-sakson (ochiq) va kontinental (yopiq) modeli tahlil qilingan va institutsional ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlari turkumlab berilgan. Xususan, davlat xizmatiga kirish va tanlash tartibi, karyera tizimi, huquq va majburiyatlari, rag'batlantirish, mehnat qonunchiligi tahlil qilindi. Shu asnoda Singapur, Yaponiya, Fransiya va Xitoyning davlat xizmati tizimi modeli tahlil qilindi. O'zbekiston sharoitida davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirishda xorijiy davlatlarning bu sohadagi ijobiy va salbiy jihatlari taqqoslangan, ayni yo'nalishdagi innovatsiyalar ilg'or tajribalar ochib berildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **«Fuqarolik xizmatida inson salohiyatini rivojlantirish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish va raqamlashtirish tendensiyalari»**ga bag'ishlangan bo'lib, davlat fuqarolik xizmatchilari salohiyatini rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlar tizimida manfaatlar to'qnashuvi sotsiologik tahlil qilingan. Shuningdek, sohani raqamlashtirish va elektron hukumatni rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan.

Xususan, ushbu bobda davlat fuqarolik xizmatchilarini professional rivojlantirish va salohiyatini oshirish masalalari sotsiologik tadqiq qilingan. Bu borada mumtoz sotsiologiya vakillarining yondashuvlari qiyosiy o'rganilib, yuqori darajadagi professional kadrlar tarkibini shakllantirish masalalari, O'zbekistonda bu borada olib borilayotgan islohotlar, xodimlarning salohiyatini rivojlantirishga sabab bo'luvchi ijtimoiy va shaxsiy omillar tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi O'RQ-788-son Qonunining 42-moddasida davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirishdan maqsad uning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallashi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratligi belgilab qo'yilgan¹⁷. Shuningdek, qayta tayyorlash, malaka oshirish va mustaqil ta'lim olish davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirishning asosiy shakllari sifatida ko'rsatib o'tilgan.

¹⁷O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi O'RQ-788-sonli Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/6145972>

Davlat xizmatchilari salohiyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi davlat xizmatchilarining professional rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va shaxsiy omillar turkumlab chiqilgan. Shuningdek, xodimlar salohiyatini rivojlantirishning obyektiv, subyektiv va subyektiv-obyektiv jihatlarini quyidagi rasmda ochib berilgan (5-rasm).



5-pacm. Davlat fuqarolik xizmatchilari salohiyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

2025-yil 5-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishda kadrlarni o'qitish, tarbiyalash va joy-joyiga qo'yishda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va Davlat boshqaruvi akademiyasining yetakchi muassasa sifatidagi roli sezilmayotgani qayd etildi¹⁸. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi «Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-78-son Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi etib qayta tashkil etildi¹⁹. Ushbu Farmonga muvofiq, Akademiyada davlat xizmatchilarining malakasini muntazam oshirib borish va qayta tayyorlash, davlat xizmati sohasida ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni samarali yo'lga qo'yish vazifalari belgilab berildi.

Zamonaviy davlat fuqarolik xizmati tizimi oldiga qo'yilayotgan yangi talablar ushbu sohadagi mavjud bilim va ko'nikmalarni muntazam ravishda yangilab va takomillashtirib borishni taqozo qilmoqda. Bunday murakkab va ko'p qirrali jarayonga kompleks yondashuvni ta'minlash maqsadida, kompetensiyalar modelini ishlab chiqish, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini har tomonlama baholash tizimini


¹⁸https://uza.uz/uz/posts/mahallada-odamlar-bilan-ishlagan-ularning-muammosini-oz-kozi-bilan-korib-hal-qilgan-yoshlar-orasidan-rahbar-kadrlar-tanlab-olinadi_694731

¹⁹<https://www.lex.uz/pdfs/7520315>

joriy etish, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, individual rejalar asosida xizmatchilarni shaxsiy professional rivojlanish trayektoriyalarini monitoring qilib borish zarur. Shu bilan birga, istiqbolda zarur bo‘ladigan malakali ko‘nikmalar asosida davlat xizmatchilarining ko‘nikmalarini («hard&soft skills») rivojlantirib borish, kompetensiyaga asoslangan ta’lim (Competency-Based Learning), tezkor va maqsadli o‘quv modullari (Microlearning), amaliyotchi rahbarlar uchun mo‘ljallangan maxsus ta’lim dasturlari (Executive Master of Public Administration), uzluksiz ta’lim tizimi («continuing education»), hayot davomida ta’lim olish «Lifelong Learning» g‘oyalarini sohaga integratsiyalash zarurligi qayd etilgan. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilarning raqamli savodxonligini oshirish, dizayn-fikrlash (Design Thinking), adaptiv yetakchilik (Adaptive Leadership), moslashuvchan va inklyuziv qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion o‘quv texnologiyalarini tatbiq etish masalalari tahlil qilingan.

Bugungi kunda global raqamlashtirish masalasi ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olayotganligi, ular inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bir sharoitda davlat fuqarolik xizmatini raqamlashtirish, elektron hukumat, fuqarolarga davlat xizmatlarini raqamli ko‘rsatish ko‘lamini oshirish orqali jamoatchilikning davlatga bo‘lgan ishonchining ortishi masalalari tahlil qilingan. «Fuqaro – asosiy mijoz» tamoyili asosida davlat fuqarolik xizmatini raqamlashtirish jarayoni inklyuziv ahamiyat kasb etishi, xavfsiz va ishonchli bo‘lishi hamda funksional moslashuvchan bo‘lishi izohlab berilgan. Raqamlashtirish transformatsiyasi jarayonida axborot xavfsizligini ta’minlash, shaxsga oid ma’lumotlarning tarqalishining oldini olish, xavfsiz va ishonchli tizimni yaratish masalalariga urg‘u berilgan.

Shuningdek, ushbu bobda davlat fuqarolik xizmatining samaradorligi va jamoatchilik oldidagi imijini oshirishgi xizmat qiluvchi institutsional yo‘nalishi, ya’ni manfaatlar to‘qnashuvi va unga qarshi kurashish masalalariga o‘rin berilgan. Xususan, manfaatlar to‘qnashuviga oid sotsiologik yondashuvlar, davlat xizmatchisi xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar, shaxsiy va jamoaviy motivatsiya o‘rtasidagi kurash masalalari ijtimoiy jihatdan tasniflab berilgan (6-rasm).




6-rasm. Manfaatlar to‘qnashuvi tavsifi

Ushbu sohada mamlakatimizdagi hamda anglo-sakson va roman-german modellaridagi xorijiy davlatlarning ayrim huquq normalari va farqlovchi xususiyatlari tahlil qilingan. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hollarda ko'riladigan choralarni turkumlab olingan. Manfaatlar to'qnashuvi natijasida davlat hokimiyati organlaridagi konfliktlar ichki tashkiliy oqibatlarni keltirib chiqarishi, ijtimoiy muhit holatini kuchsizlantirishga, korrupsiya, tanish-bilishlik, mahalliychilik kabi salbiy holatlarning ortishiga va natijada jamoatchilik o'rtasida davlat xizmatiga nisbatan bo'lgan ishonchining pasayishiga olib kelishi ochib berilgan.

Dissertatsiyaning «**O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatida institutsional va tashkiliy-madaniy an'analarning sotsiologik tahlili**» deb nomlangan to'rtinchi bobida O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmati tizimini modeli shakllantirilib, unda davlat xizmatining turlari, faoliyatning huquqiy asoslari, lavozim guruhlari, davlat fuqarolik xizmatchilarini ijtimoiy himoyasi va kafolatlari, uning tashkiliy tuzilmasi, davlat xizmatining ijobiy imijini oshirishga xizmat qiluvchi institutsional masalalari, tashkiliy-madaniy qadriyatlari nazariy va sotsiologik tahlil qilingan.

Sohaga oid ilmiy manbalar tahlilidan kelib chiqqan holda davlat fuqarolik xizmatchilarini ijtimoiy himoyasi va kafolatlarining tarkibiy tuzilishining moddiy, nomoddiy, innovatsion va nostandart turlari tasniflab olindi (7-rasm).



7-pacm. Ijtimoiy himoya tizimining tarkibiy tuzilishi

Ko'rsatib o'tilgan to'rt yo'nalishdagi tasniflash modeli davlat fuqarolik xizmati tizimidagi ijtimoiy himoya vositalarining tizimli, o'zaro bog'liq va ko'p qirrali mohiyatini o'zida mujassamlashtiradi. Bunday yondashuv orqali xizmatchilarning nafaqat moddiy


ehtiyojlarini, balki ularning kasbiy yetukligi, psixoemotsional barqarorligi va jamiyatga samarali integratsiyalashuvini ta'minlovchi omillar ham qamrab olinadi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining ijtimoiy himoya va moddiy ta'minoti tizimi metodik va metodologik asoslari – moddiy-huquqiy himoya va barqarorlik, aniqlik, faoliyat vositasi, motivatsiya, identiklik va maqom belgisi turkumlab chiqilgan. Mazkur yo'nalishda anglosakson va roman-german (kontinental) tizimidagi mamlakatlarning tajribalarining farqli jihatlari o'rganilgan.

Ushbu bobda jamoatchilik ongida davlat xizmatiga nisbatan shakllangan qarama-qarshi munosabatlar va ijtimoiy stereotiplarga barham berish, shu maqsadda davlat fuqarolik xizmatchisining dunyoqarashi darajasini oshirish, munosib kadrlarni tanlab olish, professional xizmat ko'rsatish, faoliyatni baholash, adolatli boshqaruv, ish faoliyatini ratsional taqsimlash, karyera, lavozim pog'onalarida o'sish, mehnat faoliyatining afzal jihatlari, adaptatsiya, ustozlik instituti, tashkiliy-madaniy an'analar va qadriyatlarini takomillashtirish mexanizmlari anketali so'rov, kontent tahlil va ekspert so'rov natijalarining qayta ishlanib, korrelyatsion tizimlashtirilgan xulosalar, aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmati tizimini modernizatsiyalash bo'yicha tizimlashtirilgan ishlardagi innovatsion tendensiyalar sotsiologik tahlil qilingan.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar davlat fuqarolik xizmatining jamiyatdagi ijobiy imijini mustahkamlash zaruriyatini ko'rsatmoqda. Bu esa birinchi navbatda jamoatchilik ongida davlat xizmatiga nisbatan shakllangan turli qarashlar va ijtimoiy stereotip (bir qolipga tushgan, tor doiradagi) fikrlashning mavjudligi bilan bog'liq. Xususan, jamoatchilik ongida davlat xizmatchisi yoki amaldorning qiyofasi rasmiy-byurokrat va ortiqcha hujjatbozlikka asoslangan shaxs ko'rinishidagi tasavvurlar shakllangan. Bunday ijtimoiy tasavvur va stereotiplar davlat fuqarolik xizmatining insonparvar, ochiq va samarali boshqaruv tizimiga aylanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, davlat fuqarolik xizmatchilari, ayniqsa boshqaruv amaldorlari o'z faoliyatini samarali tashkil etishi uchun o'z xodimlari va jamoatchilik bilan ishlashda zarur kompetensiyalarga ega bo'lishini taqozo qilmoqda.


Mazkur sohadagi ma'lumotlarni kontent tahlil qilgan holda jamoatchilikning davlat fuqarolik xizmatidan qoniqishini baholashga bog'liq omillarni quyidagicha turkumlab oldik.



8-rasm. Jamoatchilikning davlat fuqarolik xizmatidan qoniqishini baholash omillari

Mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatining milliy modelini yaratish uchun, mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish, yetakchi xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularni mamlakatimiz sharoitiga mos jihatlarini joriy qilish foydadan holi bo‘lmaydi. Dissertatsiyada O‘zbekistondagi davlat fuqarolik tizimi modeli shakllantirildi va u jamiyatning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari, huquqiy bazasi va institutlar tizimiga mos yondashuvini namoyon etadi.

«Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida»gi Qonunning 36-moddasiga muvofiq, davlat fuqarolik xizmatchisini rag‘batlantirish hamda xolisona va adolatli mezonlar asosida lavozim bo‘yicha o‘sishini ta‘minlash uchun, uning faoliyati samaradorligini eng muhim ko‘rsatkichlar asosida baholash tizimi joriy etilishi belgilangan. Dissertatsiya tadqiqotida xodimlar faoliyatini baholash amaliyotining joriy holati o‘rganildi. Xususan, respondentlarga «Tashkilotingizda xodimlarning faoliyati qaysi mezonlar asosida baholanadi?» mazmunidagi savol bilan murojaat etildi va uning tahlili quyida keltirilgan (9-rasm).



9-rasm. Tashkilotingizda xodimlarning faoliyati qaysi mezonlar asosida baholanadi? %

Davlat fuqarolik xizmatiga nomzodlarni izlash, tanlash va saralash jarayoni tashkilotda inson resurslarini rivojlantirishning strategik va fundamental asosini tashkil qiladi. Kompleks ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu jarayon tashkilotda inson kapitaliga bo‘lgan dastlabki ehtiyojni aniqlash, keyingi bosqichlarda uni sifatli va samarali tarzda qondirish sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda professional va malakali mutaxassislarni tanlab olish tashkilotning mehnat imkoniyatlarini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Kuchli raqobat sharoitida har bir tashkilot vakant lavozimlarga yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega va eng yaxshi xodimlarni tanlab olishga intiladi. Qonunchilikka muvofiq, mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish tanlov asosida amalga oshiriladi va bu jarayon nomzodning xizmat lavozimiga tayinlanishi bilan yakunlanadi.

Tadqiqot davomida mazkur masala bo‘yicha respondentlarning joriy holatdagi fikrlari o‘rganildi. Ma‘lum bo‘lishicha, respondentlarning **70%** xizmat qilayotgan tashkilotda nomzodlar ishga ochiq tanlov asosida qabul qilinishini ma‘lum qilgan. Bu ko‘rsatkich davlat fuqarolik xizmatini modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga


oshirilayotgan islohotlarning kadrlarni tanlashda shaffoflik va adolat prinsiplariga muvofiqlashib borilayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, **18,5%** avvalgi ish tajribasi asosida tanlab olinishini, **9,2%** tavsiyalar asosida saralab olinishini aytib o'tgan. Bundan tashqari, ishtirokchilarning **8,7%** nomzodlar tanish-bilishlik asosida, **9,4%** rahbar tavsiyasi asosida va **5%** tashkilotda tanlov tizimi yo'lga qo'yilmaganligini ma'lum qilgan. Ushbu raqamlar tanlov asosida ishga qabul qilish amaliyoti asosiy tendensiya sifatida shakllanayotganligini qayd etsa-da, subyektiv va norasmiy ta'sir vositalarining mavjudligi sohada nomzodlarni baholashning institutsional va mustaqil mexanizmlarini mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda tashkilotlarga munosib kadrlarni topish murakkab, ko'p bosqichli va muayyan vaqt talab etuvchi vazifaga aylangan. Mazkur masalada olib borilgan empirik tadqiqot va tahlillardavlat fuqarolik xizmatiga kirishda nomzodlar uchun asosiy motivsion mezonlar sifatida ajralib qolmoqda: birinchisi – yuqori darajadagi ish haqi, ikkinchisi – moliyaviy barqarorlik, uchinchisi – kasbiy o'sish va barqaror ish faoliyati; to'rtinchisi – jamoadagi axloqiy va psixologik sog'lom muhit. Bu mezonlar davlat fuqarolik xizmatiga kirishda nomzodlar tomonidan e'tibor qaratiladigan asosiy omillar hisoblanadi. Ular davlat fuqarolik xizmatining jozibadorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, kadrlar siyosatini olib borishda strategik yondashish kerakligini talab etadi

Ekspertlar tahliliga ko'ra, malakali mutaxassislarning davlat xizmatiga kirishida turli to'siq va cheklovlar mavjud bo'lib, ular kadrlar zaxirasini shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ular tomonidan quyidagi omillar ajratib ko'rsatilgan: ish haqining bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida belgilanmasligi; ish rejimi va vazifalarning tartibga solinmaganligi; xizmat majburiyatlariga taalluqli bo'lmagan boshqa vazifalarning yuklanishi; xizmat faoliyatidagi ortiqcha rasmiyatchilik va byurokratik to'siqlar; jamiyatda davlat fuqarolik xizmatining ijtimoiy nufuzining yuqori darajada emasligi.


